

**TURKISTONDA “HARBIY KOMMUNIZM” DAVRIDA
QISHLOQ XO‘JALIK KOOPERATIVLARI FAOLIYATI****G‘aniyev Ahrorbek Abdurahim o‘g‘li**

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada Turkistonda “Harbiy kommunizm” siyosati (1918–1921) davrida qishloq xo‘jalik kooperativlarining shakllanishi, ularning faoliyat tamoyillari va iqtisodiy hayotdagi o‘rni tahlil qilingan. Unda davlat tomonidan joriy etilgan majburiy oziq-ovqat siyosati, rekvizitsiya va taqsimot tizimi natijasida kooperativlarning o‘zgarishi, ularning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yig‘ish, taqsimlash va aholiga yetkazib berish jarayonlaridagi roli yoritiladi. Shuningdek, siyosiy beqarorlik, ichki iqtisodiy inqiroz va transport muammolari sabab kooperatsiya tizimining samaradorligiga ta’sir qilgan omillar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, Harbiy kommunizm, kooperativlar, rekvizitsiya, agrar siyosat, oziq-ovqat taqsimoti, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiy inqiroz, davlat boshqaruvi, agrar munosabatlar.

1917-yil oktabr voqealari Rossiya dehqonlari, shuningdek, sobiq imperiyaning milliy chekka hududlari taqdirini tubdan o‘zgartirib yubordi. Oktabr to‘ntarishi Turkistondagi “inqilobdan oldingi” qishloqning asosiy poydevorlarini buzib tashladi, bu yerda avvalgi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tugatildi, yer va suv resurslari keng ko‘lamda qayta taqsimlandi. Biroq, bu o‘zgarishlar kutilgan darajada ijobiy natija bermadi.

Yangi tashkil etilgan sovet davlatida vayronagarchilik, iqtisodiyotni boshqarish tajribasining yo‘qligi va sinfiy dushmanga qarshi kurashning inqilobiy ruhi sharoitida kontributsiya, rekvizitsiya, musodara va oxir-oqibatda



oziq-ovqat razvyorstkasi usullari maqbul ko‘rindi. Bu usullarni amalga oshirish mexanizmlari ham shakllanib bordi. Bular ishchilarning oziq-ovqat otryadlari va kambag‘allar qo‘mitalari edi. Zamonaviy tadqiqotchilar ularning tashkil etilishini yangi hokimiyatning dehqonlarni ijtimoiy belgilariga ko‘ra ajratishga urinishi bilan bog‘laydilar.

1918-yil aprel oyining boshlarida bu mexanizmni yaratishga bag‘ishlangan uchta dekret paydo bo‘ldi. Birinchi dekretga muvofiq, kasaba soyuzlari, fabrika komitetlari, shahar va uyezd sovetlari ishchilar va eng kambag‘al dehqonlardan oziq-ovqat otryadlari tuzishlari va ularni g‘alla yetishtiruvchi hududlarga yuborib, “qat’iy narxlarda yoki quloqlardan tortib olish hisobiga g‘alla tayyorlashlari” kerak edi. Bu yo‘l bilan olingan g‘allaning yarmi otryadlar yuborgan tashkilotlarga, yarmi Oziq-ovqat xalq komissarligiga berilar edi. Ikkinchi dekretga guberniya va uyezd Sovetlari, shuningdek, “eng kambag‘al dehqonlar” komitetlari va kasaba soyuzlari zarur bo‘lgan joylarda hosilni yig‘ib-terib olish uchun shunga o‘xshash otryadlar tashkil etishlari shart qilib qo‘yildi. Uchinchi dekretga ko‘ra, ishchi otryadlarining tashkil etilishi va tuzilishi belgilandi, bu otryadlar “shubhasiz halol va inqilobga sadoqatli ishchilar va eng kambag‘al dehqonlar orasidan kamida 25 kishini o‘z ichiga olishi kerak edi”.

Rejalashtirilgan mexanizm ishlashni boshladi va kutilgan natijalarni berdi. 1919-yil yanvarida bu mexanizm mantiqiy yakuniga yetkazildi va tashkiliy-huquqiy jihatdan oziq-ovqat razvyorstkasida o‘z aksini topdi. Razvyorstka talab qilingan miqdordagi mahsulotlarni majburiy musodara qilish tartibida natura majburiyati sifatida amalga oshirilishi kerak edi. Uning odatdagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqqa tortishdan farqi ham shunda edi. RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining 1919-yil 11-yanvardagi dekreti va Oziq-ovqat xalq komissarligining batafsil yo‘riqnomasiga ko‘ra, davlat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan barcha g‘alla va donli yem-xashak miqdori ishlab



chiqaruvchi guberniyalar o'rtasida taqsimlandi. Guberniyalar uyezdlar o'rtasida, uyezdlar volostlar o'rtasida, volostlar esa o'z navbatida o'z kvotalarini qishloqlar va alohida dehqonlar o'rtasida taqsimlashlari kerak edi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlariga oziq-ovqat razvyorstkasini joriy etish, tovar-pul munosabatlarini cheklash, savdoni qisqartirish hamda qishloq xo'jaligi mashinalari va inventarlarini taqsimlash kooperatsiyani savdo-tayyorlov, ta'minot va kredit operatsiyalarini mustaqil amalga oshirish imkoniyatidan mahrum qildi. Bu esa dehqonlarning kooperatsiyaga bo'lgan ishonchsizligini keltirib chiqardi.

Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti 1920-yil 16-avgustda "Davlat tasarrufiga o'tkaziladigan don va yem-xashakni taqsimlash hamda ularga belgilangan qat'iy narxlar to'g'risida"gi qarorni tasdiqladi. Bu qarorda oziq-ovqat razvyorstkasi tamoyili asosidagi g'alla va yem-xashak tayyorlash tizimi Turkiston ASSRning barcha hududlariga, shu jumladan mahalliy millatlar istiqomat qiladigan joylarga ham joriy etilishi belgilandi.

Turkiston respublikasi foiz ajratmasi va natural g'alla majburiyatidan oziq-ovqat razvyorskasiga o'tdi. Turkkomissiya, Turkiston ASSR kompartiyasi va TASSR Sovetlari oziq-ovqat razvyorstkasini respublikaning barcha hududlariga joriy etib, uni mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda amalga oshirdilar. Birinchidan, razvyorstka faqat o'troq aholiga tatbiq etildi. Turkiston qishloq aholisining uchdan bir qismidan ko'prog'ini tashkil etgan ko'chmanchi aholidan oziq-ovqat tayyorlash esa tovar ayirboshlash tartibida davom ettirildi.

Oziq-ovqat tayyorlash, davlat topshirig'ini amalga oshirish jarayonida dehqon xo'jaliklariga nisbatan sinfiy yondashuv ustunlik qildi, quloq xo'jaliklariga eng ko'p, o'rtahol dehqonlardan o'rtacha miqdorda g'alla mahsulotlari olindi. kambag'al dehqonlar esa bundan ozod qilindi. O'z oziq-



ovqat zahiralari qasddan yashirgan, oziq-ovqat razvyorstkasi siyosatini barbod qilishga uringan xo'jaliklarga nisbatan qattiq choralar ko'rildi. Hatto ularning mol-mulki musodara qilinib, o'zlari xalq sudining hukmi bilan ozodlikdan mahrum etildi.

Turkiston respublikasi Markaziy Ijroiya Komitetning yuqoridagi qarori jamoaviy tovar ayirboshlash tartibini o'rnatdi. Sanoat mollari o'ziga tegishli taqsimotni bajargan butun qishloqqa ajratildi va barcha aholi, shu jumladan taqsimotdan ozod qilingan kambag'allar o'rtasida ham qat'iy narxlar asosida taqsimlanishi belgilandi. Sanoat mahsulotlarini qat'iy belgilangan narxlarda taqsimlanishida matlubot kooperatsiyalari muhim ahamiyat kasb etdi.

Turkistondagi sovet hukumati kooperativlar orqali kambag'al dehqon xo'jaliklarini urug'lik materiallari bilan ta'minlash uchun ma'lum bir choralarni ko'rди. Urug'chilik ishini to'g'ri yo'lga qo'yish va rivojlantirish qishloq xo'jaligini yuksaltirishning muhim shartlaridan biri hisoblanardi. Dehqonlarni sifatli urug'lik materiallari bilan ta'minlash maqsadida davlat urug'chiligini keng ko'lamda rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish lozim edi.

Dastlab urug'lik materialini tayyorlash va taqsimlash faqat Yer ishlari xalq komissarligi zimmasida edi. Biroq 1919-yil 10-yanvardan boshlab, yer islohoti hay'atining qaroriga ko'ra, urug'lik materialini tayyorlash Oziq-ovqat direktoriyasiga yuklatildi. Yer ishlari xalq komissarligi esa faqat urug'likni taqsimlash vazifasini o'z zimmasida saqlab qoldi. Dehqon xo'jaliklarining urug'likka bo'lgan haqiqiy ehtiyojini aniqlashda va, binobarin, ularni to'g'ri taqsimlashda joylardagi yer-suv qo'mitalari, kambag'allar qo'mitalari va kooperativlar muhim rol o'ynadi.

Biroq, aholining urug'lik materialga bo'lgan ehtiyojini faqat direksiya tomonidan tayyorlangan juda kam miqdordagi zaxiralarni adolatli taqsimlash



bilan qondirib bo‘lmas edi. Shuning uchun ham dehqon xo‘jaliklarini urug‘lik materiallari bilan ta‘minlash masalasini ta‘minot kooperativlari orqali ham hal qilish kun tartibiga qo‘yildi.

Dastlabki kommuna va artellarni tashkil etish bo‘yicha to‘plangan tajribani umumlashtirish maqsadida Turkiston respublikasi hukumati 1919-yil yozida Toshkentda kollektiv xo‘jaliklar vakillarining birinchi syezdini chaqirdi. Syezdda kommunalarni boshqarish uchun “Internatsional” deb nomlangan rahbariy organ tuzildi. Bu organ barcha kommunalar, artellar va kooperativ shirkatlarni birlashtirishi, ularning xo‘jalik faoliyatini muvofiqlashtirishi, madaniy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etishi va boshqa vazifalarni bajarishi kerak edi.

Chorvachilikni qayta tiklashda chorvachilik artellari va shirkatlariga muhim o‘rin berildi, ularga muayyan qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatildi. Yangi tashkil etilgan shirkatlar chorva hayvonlari va zarur jihozlar sotib olish uchun pul krediti oldilar, shuningdek, yaylovlar bilan ta‘minlandilar. O‘z navbatida, shirkatlar har yili yetishtirilgan chorva hayvonlarining bir qismini davlatga topshirardilar. Masalan, Turkiston ASSR Yer ishlari xalq komissarligi “Chorva Shirkat” nomli shirkat xo‘jaligi bilan tuzgan shartnomaga ko‘ra, shirkat xo‘jaligi hukumatdan ma‘lum shartlar asosida kamida 8000 ta qo‘y, 200 ta ot, 20 ta tuya va tegishli jihozlar sotib olish uchun 110 million rubl miqdorida qarz olgan.

Turkiston ASSRda 1919-yil boshlariga kelib, paxtachilikdagi vaziyat nihoyatda og‘ir bo‘lib qolaverdi. Turkistonda avj olgan ocharchilik tobora kuchayib bormoqda edi. Oziq-ovqat tanqisligini bartaraf etish uchun tashkil etilgan oziq-ovqat direksiyasi shahar aholisini faqatgina ma‘lum darajada ta‘minlay olardi, xolos. Bu borada o‘z holiga tashlab qo‘yilgan dehqonlar yerlariga asosan oziq-ovqat ekinlarini ekishga majbur bo‘lardilar. Paxta maydonlari shiddat bilan qisqarishda davom etdi. Respublika paxta taqchilligi



xavfi ostida qoldi. Bu esa paxta tozalash zavodlarining to‘xtab qolishiga, o‘z navbatida, sanoatning boshqa tarmoqlarida turg‘unlikka va ishsizlikning ko‘payishiga olib kelishi mumkin edi. Shu bilan birga, bozorlarda paxta bilan chayqovchilik avj olgan edi. Rayon paxtachilik qo‘mitalari mablag‘ yetishmasligi sababli barcha paxtani xarid qila olmay, paxta xususiy shaxslar qo‘liga o‘tib ketayotgan edi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Nosova N.P. Upravlyat ili komandovat? Gosudarstvo i krestyanstvo Sovetskoy Rossii (1917–1929). – Moskva: Izd-vo Mosk. un-ta, 1993. – S. 324.
2. История народного хозяйства Узбекистана. Том 1. Отв. ред. О.Б. Джамалов. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1962. – С. 84.
3. O‘z MA, R-31-fond, 1-ro‘yxat, 112-ish, 152-varaq.
4. Sobraniye Uzakoneniy RSFSR. 1917–1918. № 57. – S. 633.